



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2024-yil 18-aprel, payshanba,
46 (23.923)-son

**KUN
HIKMATI**

Yaxshi inson
birovdan ayb
qidirmaydi, uning
ayb qilishiga yo'l
qo'ymaydi

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz



Kasaba uyushmasi tizimidagi yosh xodimlar qo'llab – quvvatlanadi

Jamoat xizmati internatsionali Yevropa federatsiyasi (EPSU) 1978-yilda tashkil etilgan va 260 dan ortiq kasaba uyushma tashkilotlaridan sakkiz million jamoat xizmati xodimlarini birlashtiradi. Yevropa kasaba uyushmalari konfederatsiyasiga tegishli va Jamoat xizmati internatsionalining tan olingan mintaqaviy tashkiloti hisoblanadi. U energiya, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, shuningdek, Yevropa mamlakatlaridagi mahalliy, mintaqaviy va markaziy hukumat xodimlarining manfaatlarini ifodalaydi.

O'zbekiston Sog'liqni saqlash xodimlari kasaba uyushmasi respublika kengashi 2020-yil 1-yanvardan federatsiyaning a'zo tashkiloti hisoblanadi. Federatsiya o'zining mintaqaviy yig'ilishlarini an'anaviy tarzda yilda kamida bir marta a'zo davlatlar hududida o'tkazib keladi. Jumladan, Jamoat xizmati internatsionalining Yevropa federatsiyasi Markaziy Osiyo saylov okrugining navbatdagi mintaqaviy yig'ilishi joriy yilning 16-17-mart kunlari Toshkent shahrida o'tkazilgan edi.

16-17-aprel kunlari Samarqand davlat tibbiyot universitetida Jamoat xizmati internatsionali Yevropa federatsiyasi yoshlar kengashi hamraisi Alina Tankelyun, Sog'liqni saqlash xodimlari kasaba uyushmasi respublika kengashi raisi Farhod Xanapiyayev hamda sog'liqni saqlash xodimlari kasaba uyushmasi mas'ullari ishtirokida «Rahbar va yoshlar uchrashuvi» bo'lib o'tdi.

Uchrashuvda O'zbekiston sog'liqni saqlash xodimlari kasaba uyushmasi tizimida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish, yosh xodimlarni qo'llab-quvvatlash, ularning muammolariga yechim topish maqsadida Samarqand, Sirdaryo, Jizzax, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari yoshlari bilan ochiq muloqot qilindi.

- Sog'liqni saqlash xodimlari ka-

saba uyushmasi tizimidagi o'zbekistonlik yoshlar bilan uchrashishni, soha mutasaddilari hamkorligida ularning murojaatlarini eshitib, tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, kasaba uyushmalari tizimida faoliyat boshlashiga ko'maklashish hamda Yevropa mamlakatlarida tajribasini yoshlarga o'rgatishni maqsad qilganmiz, - deydi Alina Tankelyun. - Yaqinda Buxoro davlat tibbiyot institutida Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Navoiy va Buxoro viloyatlari yoshlari uchun dastlabki uchrashuvni o'tkazgan edik. Bugun esa Samarqandda beshta viloyat yoshlari jam bo'lgan. Keyingi uchrashuv Toshkentda O'zbekistonning boshqa viloyatlaridagi yoshlar bilan o'tkaziladi va kasaba uyushmalari tizimida faol ishlayotgan talaba-yoshlar, yosh xodimlar saralanib, yoshlarga yetakchi sifatida biriktiriladi hamda o'zini ko'rsatishi va iqtidorini namoyish etishi uchun sharoit yaratiladi.

Uchrashuv davomida sohada amalga oshirilayotgan ishlar haqida ham ma'lumot berildi.

Tadbir doirasida mehmonlarning shahardagi diqqatga sazovor joylarga sayohati tashkil etildi.

Maftuna MO'MINOVA,
Samarqand tumanidagi
8-umumiy o'rta ta'lim maktabi
o'qituvchisi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmonning taklifiga binoan 18-19-aprel kunlari davlat tashrifi bilan ushbu mamlakatda bo'ladi. Tashrif dasturiga muvofiq, Dushanbe shahrida oliy darajadagi muzokaralar, qator ikki tomonlama uchrashuv va qo'shma tadbirlar o'tkazilishi rejalashtirilgan.



O'zbekiston va Tojikiston. Ikki tilda so'zlashuvchi bir xalq va-killari azaldan ahil-inoq, yaqin qo'shnichilikda yashab kelgan. Keyingi yillarda bunday aloqalar yanada mustahkamlanib, iqtisodiy hamkorlik kuchaymoqda.

Hozirda viloyatimizda Tojikiston kompaniyalari kapitali ishtirokida 7 ta qo'shma korxona, 6 ta xorijiy korxona faoliyat yuritmoqda.

Jumladan, Urgut tumanida "DIAMOND PETROL" va "EVRO CASINGS" qo'shma korxonalari savdo xizmati, Toyloq tumanida "SOCHAK EXPORT ENTERPRISES" mas'uliyati cheklangan jamiyati oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va Payariq tumanidagi "AVICENNA INTERNATIONAL GROUP" mas'uliyati cheklangan jamiyati tibbiy xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanib kelmoqda.

Bundan tashqari, 2023-yilda viloyatimizda 1 ta investitsiya loyihasi doirasida Tojikiston davlatidan 2,6 million dollar xorijiy investitsiya

Qo'shni davlatga 60 MILLION DOLLAR lik EKSPORT

o'zlashtirilgan.

- Davlatimiz rahbarining sa'y-harakatlari bilan qo'shni davlatlar o'rtasida hamkorlik kuchaydi, chegaralar ochildi, hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yildi, - deydi Samarqand tumanidagi "Navobod naslli parranda" mas'uliyati cheklangan jamiyati rahbari Haydar O'roqov. - Bu albatta, tadbirkorlarga katta imkoniyat, yangi bozorlar ochib berdi. Shu imkoniyatdan foydalanib, biz ham 2018-yilda Dushanbe va Xo'jandda qo'shma loyihalarni amalga oshirishga kirishdik. Ularga har chorakda 1,5

million dollarlik naslli jo'ja va parranda ozuqasi eksport qilamiz. Hamkorlikni yanada kengaytirish va davom ettirish, istiqbolda yangi loyihalarni amalga oshirish bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

2023-yilda viloyatimizning Tojikiston bilan tovar aylanmasi 70 million dollarni tashkil etib, 59,9 million dollarlik eksport hamda 10,1 million dollarlik import amalga oshirildi. Tojikistonga eksport mahsulotlari asosan hayvonlar uchun ozuqa, matolar, metall buyumlar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

O'.XUDOYBERDIYEV.

TAYINLOV



Tolliyev Elyor Musurmanovich - viloyat soliq boshqarmasi boshlig'i lavozimiga tayinlandi. Mazkur tayinlovga qadar E.Tolliyev Urgut tumani soliq inspeksiyasi boshlig'i lavozimida faoliyat yuritgan.

Tojikiston rektorlari Samarqandda

Toshkentda bo'lib o'tgan O'zbekiston-Tojikiston rektorlari forumi ishtirokchilari Samarqandga tashrif buyurdi. Tojikiston Respublikasi Ta'lim va fan vaziri Rahim Saidzoda boshchiligidagi 30 ga yaqin oliy ta'lim muassasalari rektorlari Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bo'ldi.

Forum ishtirokchilari tashrif davomida SamDU arxeologiya, zoologiya muzeylarini ko'zdan kechirdi. Biokimyo instituti kampusida bo'lib, dars jarayonida ishtirok etdi. Oranjeriyaga sayohat qilishdi. Nobel mukofoti sohibi Aziz Sanjar nomidagi laboratoriya faoliyati bilan tanishdi.

Universitetda yaratilgan sharoitlarni ko'rib, oliygoh faoliyatiga yuqori baho berdi.

Rustam Xolmurodov Xo'jand davlat universiteti rektori Ayub Usmonzoda bilan tarix, arxeologiya, Tojikiston texnika universiteti rektori Qudrat Davlatzoda bilan muhandislik, IT, kimyo, iqtisod, Tojikiston agrar universiteti rektori Usmon Mahmadyorzoda bilan agrobiotex-



nologiya sohalari bo'yicha hamkorlik kelishuvlariga erishdi.

Shuningdek, Tojikiston Milliy universiteti, Ko'lob, Boxtar, Tojikiston davlat tijorat universiteti va Tojikiston pedagogika institutlari bilan memorandumlar imzolandi.

Uchrashuvdan so'ng mehmonlar Samarqand shahrining tarixiy obidalarini ziyorat qildi.

Samarqand davlat universiteti
axborot xizmati.

1 – MAYDAN ELEKTR ENERGIYASI VA TABIIY GAZ NARXI OSHADI

Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 16-apreldagi «Yoqilg'i-energetika sohasida bozor mexanizmlarini joriy etishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga muvofiq, yoqilg'i-energetika resurslarining 2024-2025-yillarda bosqichma-bosqich o'zgaradigan yangi narxlar hamda 2024-yil 1-maydan boshlab aholi uchun elektr energiyasi va tabiiy gaz bir oylik iste'molining bazaviy me'yorlari tasdiqlandi.

1-maydan boshlab energoresurslar iste'moli uchun ijtimoiy norma quyidagicha belgilandi:

- elektr energiyasiga — oyiga 200 kVt/soatgacha;
- gaz (martdan-oktyabrgacha) — 100 kub metrgacha;
- gaz (noyabrdan-fevralgacha, ya'ni isitish mavsumida) — 500 kub metrgacha.

Energiya iste'molining ijtimoiy normasi deganda aholi tomonidan sotib olishda imtiyozli tarif qo'llaniladigan energiya tushuniladi. Ya'ni, energiya ma'lum bir me'yorgacha nisbatan past (imtiyozli) narxda sotiladi va bu me'yordan yuqori iste'mol uchun bozor narxlarida sotiladi.

Shu sanadan energoresurslar uchun narxlar oshadi.

ELEKTR ENERGIYA

1-maydan boshlab elektr energiyasi narxi iste'molchilarning I va II guruhlariga uchun o'zgarishsiz qoldirildi (1 kVt/soat uchun mos ravishda 1000 so'm va 900 so'm).

Iste'molchilarning III guruhi, shu jumladan, markazlashgan holda elektr plitalar bilan jihozlangan ko'p qavatli uy-joylar va yotoqxonalarda yashovchi maishiy iste'molchilar uchun 1 oydagi iste'moldan kelib chiqib, oyiga:

- 200 kVt/soatgacha bo'lgan qismiga 225 so'mdan,
- 201 kVt/soatdan 1000 kVt/soatgacha 450 so'm,
- 1001 kVt/soatdan 5000 kVt/soatgacha 675 so'm,
- 5001 kVt/soatdan 10 000 kVt/soatgacha 787,5 so'm,
- 10 000 kVt/soat va undan yuqori iste'mol qilgan iste'molchilar uchun 900 so'mdan etib belgilanmoqda.

Qolgan maishiy iste'molchilar (aholi) uchun esa bir oydagi iste'moldan kelib chiqib, oyiga:

- 200 kVt/soatgacha 450 so'mdan,
- 201 kVt/soatdan 1000 kVt/soatgacha 900 so'mdan,
- 1001 kVt/soatdan 5000 kVt/soatgacha 1350 so'm,
- 5000 kVt/soatdan 10 000 kVt/soatgacha 1575 so'm,
- 10 000 kVt/soat va undan ortiq iste'mol qiluvchilar uchun



har bir kVt/soat uchun 1800 so'm etib belgilanmoqda.

Iste'molchilarning VI guruhi uchun ham narxlar o'zgarishsiz, ya'ni bir kVt/soat uchun 900 so'mdan bo'lib qoladi.

TABIIY GAZ

Noyabrdan fevralgacha, isitish mavsumida aholiga yetkazib beriladigan tabiiy gazning bir kubometri narxi:

- 500 kub metrgacha iste'mol uchun 380 so'mdan 650 so'mgacha,
- 501 dan 2500 kub metrgacha 1500 so'mdan,
- 2 501 dan 5 000 kub metrgacha 1950 so'mdan,
- 5 001 dan 10 000 kub metrgacha 2275 so'm,

- 10 ming kub metrdan yuqori iste'mol uchun 2 600 so'mdan etib belgilandi.

MART-OKTABR OYLARIDA

- 100 kub metrgacha gaz iste'moli uchun tariflar 650 so'm,
- 101 kub metrdan 2500 kub metrgacha 1500 so'm,
- 2501 kub metrdan 5000 kub metrgacha 1950 so'm,
- 5001 kub metrdan 10 ming kub metrgacha 2275 so'm,
- 10 ming kub metrdan ortiq iste'mol uchun 2600 so'mdan etib belgilandi.

Hisoblagichlar yo'q bo'lganda ovqat tayyorlash va issiq suv ta'minoti uchun beriladigan gazning bir kub metri 660 so'mdan 1200 so'mgacha (+81,8 foiz), isitish uchun 380 so'mdan 700 so'mgacha (+84,2 foiz) oshadi.

Aholi uchun suyultirilgan gaz tarifi 1 kg.gacha 1120 so'mdan 1600 so'mgacha (+42,8 foiz) oshadi.

1-iyundan avtomobillarga gaz to'ldirish kompressor shoxobchalariga (AGTKSh) yetkazib beriladigan gaz narxi 1500 so'mdan 1800 so'mgacha (+12%) oshadi.

Joriy yilning 25-mart kuni viloyat hokimi Jomboy tumani Beshbola mahallasida bo'lib, hududni rivojlantirish, aholiga qulay infrazuzilma yaratish yuzasidan tuman va viloyat tashkilotlari mas'ul-lariga topshiriqlar bergandi. Qisqa muddatda mahallada ishlar boshlab yuborildi.

BESHBOLA_{da} MUAMMO QOLMAYDI

- Mahallamizdagi 1300 dan ortiq xonadonda 6,5 ming aholi istiqomat qiladi, - deydi "Beshbola" mahalla fuqarolar yig'ini raisi Dilbar Rustamova. - Viloyat hokimi aholi yashash sharoiti bilan tanishib, elektr, yo'l, bandlikni ta'minlash uchun zarur vazifalarni o'rgandi. Boshqa mahallalardan farqli ravishda Beshbolada aholiga 20 sotixdan tomorqa maydonlari ajratilgan. Viloyat hokimi mahallaning joylashuvi, imkoniyat, tajribadan kelib chiqib, "Bir mahalla - bir mahsulot" tamoyili asosida mahallamizda dukkakli ekinlar, xusu-



bor ekan. Bugungi kungacha topshiriq ijrosi yuzasidan 60 foizdan ortiq ishlar bajarildi, 4,5 kilometr

yo'lga asfalt yotqizish ishlari 90 foizga bajarildi. Yaroqsiz va qo'lbola simyog'ochlar o'rni-ga 100 ta beton ustun o'rnatildi, 2,5 kilometr havo tarmog'i rekonstruksiya qilinmoqda. 2 ta transformator punkti mukammal, 6 ta tasi joriy ta'mirlandi. Qisqa muddatda ishni yakunlash uchun boshqa tumanlardan ham mutaxassislar jalb etilgan.

Mahallaning obodligi uchun boshqalar mehnat qilganda, o'zing qo'l qovushtirib turishning bizning odamlarga begona odat. Mahalla aholisi ham hashar yo'li bilan mahalladagi qabristonni obodonlashtirish, uylarini ta'mirlash, ko'chalarni tartibga keltirish ishlariga kirishgan. Homyilar tomonidan mahalla hududida avtoturarog'oh qurilmoqda. "Tashabbusli budget" loyihasida ovoz berish orqali mahalla hududidagi 50-maktabda 130 o'rinni qo'shimcha bino qurish taklifi g'alaba qozonibdi.

Xullas, bugun Beshbolada keng ko'lamli, qurilish, obodonlashtirish ishlari olib borilmoqda. Bu ishlar yaqin kunlarda yakunlanib, mahalla obod maskanga aylanadi.

O'ktam XUDOYBERDIYEV,
Baxtiyor MUSTANOV (surat).

san, loviya ekishni taklif etdi. Shundan so'ng tegishli mas'ullar ishtirokida mahalladagi 9 kilometr tuproq ko'chaga tosh yotqizish, 4,5 kilometrni asfaltlash, eski simyog'ochlarni beton ustunlarga almashtirish bo'yicha topshiriq berdi.

Viloyat va tumandan mas'ul etib belgilangan tashkilotlar ishni qisqa muddatda tugallash maqsadida reja asosida mehnat qilishmoqda.

- Mart oyida viloyat hokimi E.Turdimov Beshbola mahallasidagi ichki yo'llarga tosh va asfalt yotqizish bo'yicha topshiriq berganidan so'ng mahalladagi barcha ichki yo'llar inventarizatsiyadan o'tkazildi, - deydi tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i Bektosh Salomov. - Mahallada jami 6 kilometr uzunlikdagi 7 ta tuproq ko'cha

Taxmina Ikromova olimpiada chempioni bo'lmoqchi

↓ **Parij – 2024**

Taxmina Ikromova 2004-yil Samarqand shahrida tug'ilgan. 14 yildan buyon badiiy gimnastika bilan shug'ullanib keladi. Faoliyati davomida O'zbekiston, Osiyo chempioni, jahon kubogi, xalqaro turnirlar g'olib va sovrindori bo'lgan.

- Otasi doim qizim chempion bo'lib, oltin medalni qo'lga kiritadi, derdilar, - deydi Taxminaning onasi Madina Ikromova. - Afsuski, bevaqt o'lim sabab buni ko'rish unga nasib etmadi. Ammo Taxmina otasiga bergan va'dasini bajaryapti - jahon arenalarida yurtimiz bayrog'ini baland ko'tarib, ishonchimizni oqlayapti. - Sportga kirib kelishimda otanonamning hissasi katta, - deydi Taxmina. - 4 yoshimda ular badiiy gimnastikaga bergandan keyin ustozim Yelena Aslanova qo'l ostida mashg'ulotlarga kirishdim. Besh yoshimda ilk marta maktabda o'tkazilgan musobaqada birinchi o'rinni qo'lga kiritdim. Keyin birin-ketin katta

musobaqalarda ham ishtirok etib, yaxshi ko'rsatkichlarga erishdim. 2015-yilda terma jamoaga qabul qilinishim men uchun imkoniyat eshiklarini ochdi.

O'zbekiston, Osiyo va xalqaro turnirlarda sovrindor bo'ldim. 2022-yil aprel oyida poytaxtimizda o'tkazilgan jahon kubogida 3 ta oltin va 1 ta bronza medaliga sazovor bo'ldim. Islom birdamligi o'yinlari badiiy gimnastika bahslarining yakka (obruv) yo'nalishida oltin medalni, lenta, koptok, bulova hamda jamoaviy yakka bahslarida kumush medalni qo'lga kiritdim. Albatta, bu yutuqlarga erishishimda terma jamoadagi ustozim Liliya Vlasovaning mehnatlari katta. U kishi bilan birgalikda Toshkentda 5 yildan buyon tayyorgarlik olib boryapmiz. Musobaqalarda oson bo'lmayapti, lekin maqsad bitta - g'alaba qozonish va yurtimiz sharafiga munosib himoya qilish. Hozir ham Parijda o'tkaziladigan musobaqalarga tayyorgarlik ko'ryapmiz. Nasib etsa, ushbu nufuzli musobaqada ham oltin medalni qo'lga kiritaman.

Taxmina o'tgan yil Ozarbayjonning



Boku shahrida badiiy gimnastika bo'yicha o'tkazilgan jahon kubogida 2 ta bronza medaliga sazovor bo'ldi. O'zbekistonda 2023-yilning eng yaxshi ayol sportchisi deb topildi. Shuningdek, yakka va juftlik yo'nalishlarida Osiyo o'yinlari g'olibi, o'zbekistonlik sportchilar orasida birinchi bo'lib "Parij-2024" Olimpiadasi yo'llanmasini qo'lga kiritdi va bir qancha jahon kubogi bosqichlarida sovrindor bo'ldi. Yaqinda Fransiyada o'tkazilgan badiiy gimnastika bo'yicha Gran-pri musobaqasida oltin medalga ega chiqdi.

Shuningdek, Bolgariyaning Sofiya shahrida o'tkazilgan jahon kubogida kumush medalni qo'lga kiritdi.

Taxmina ushbu musobaqaning to'p bilan mashq bajarish dasturida 34.050 ball bilan ikkinchi o'rindan joy oldi. Bula-vadagi mashqda 30.750 ball bilan beshinchi, halqadagi dasturda esa 33.300 ball bilan oltinchi natijani qayd etdi.

F.RO'ZBOYEV.

Oqsoyda dor yo'li quriladi

Xorijlik sayyohlarning Samarqandda qolishi o'rta-tacha 2,7 kunni tashkil etadi va har bir sayyoh kuniga o'rta-tacha 85 dollardan 250 dollargacha mablag' sarflamoqda.

- Joriy yil oxirigacha viloyatimizga 4,7 million nafar mahalliy va 2,5 million nafar xorijiy sayyoh kelishi kutilmoqda, - deydi viloyat turizm boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari D.Narziqulov. - Shu yilning yanvar-mart oylarida Samarqandga 460 ming nafarga yaqin mahalliy va 339 ming nafar xorijiy sayyoh keldi. Yil yakuniga qadar umumiy qiymati 751,1 milliard so'mlik 55 ta yangi loyiha ishga tushirilib, 1087 ta yangi ish o'rni, shuningdek, turizmga yondosh xizmat ko'rsatish obyektlarida 3,5 mingdan ortiq qo'shimcha ish o'rni yaratiladi.

Jumladan, Nurobod tumani Oqsoy mahallasida "Samarqand kanat yo'llari" xususiy korxonasi tomonidan 10 gektar maydonda sayyohlarga xizmat ko'rsatish markazi, uzunligi 1,5 kilometr bo'lgan osma-dor yo'li loyihasi foydalanishga topshiriladi. Natijada 200 ta yangi ish o'rni yaratiladi va bir vaqtning o'zida 800 nafar

sayyohga xizmat ko'rsatiladi.

Samarqand shahrida esa "Qorako'l Stroy Engineering" MChJ tomonidan qiymati 30 million dollarlik 300 o'rinni mehmonxona va restoran, kafe hamda savdo va xizmat ko'rsatish nuqtalari foydalanishga topshiriladi. Shuningdek, Urgut tumanining Tersak, Beshkon, Qoratepa, Omonqo'ton, Yettiulik, Chorchinor, Xo'jayduq mahallalarida 2024-2025-yillarda umumiy qiymati 13,3 milliard so'mlik loyihalar ishga tushiriladi.



hamda radioelektron vositalar va yuqori chastotali qurilmalardan foydalanishni tartibga solish to'g'risida"gi qarorida belgilangan radioelektron vositalarni sotib olish, o'rnatish, xorijdan olib kirish, ekspluatatsiya qilishga ruxsat etish va ulardan foydalanish tartibiga rioya qilishlari shart.

R.KARIMOV,
Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar nazorat inspeksiyasi viloyat hududiy shu'basi mutaxassisi.

Noqonuniy aloqa vositalaridan foydalanish

javobgarlikka olib keladi

Turli radioelektron vositalardan o'zboshimchalik bilan foydalanish ko'ngilsizliklarga olib kelishi mumkin. Chunki radio chastotalardagi ortiqcha shovqin va to'liqlar o'ta muhim aloqalarning buzilishiga olib keladi. Shuning uchun Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasi nazorat inspeksiyasi viloyat hududiy shu'basi, "YMMM" DUK viloyat elektromagnit moslashuv xizmati hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan tez -tez radiomonitoringlar o'tkazilib turiladi.

Ishtixon tumanida olib borilgan xuddi shunday radiomonitoringda Ishtixon mahallasi fuqarosi A.Z. "Baofeng" BF666-S rusumli 10 ta radi-

oelektron aloqa vositasidan noqonuniy foydalanib kelayotgani ma'lum bo'ldi. Shuningdek, tumandagi Ko'tarma mahallasida yashovchi I.J.

ham o'zboshimchalik bilan "Baofeng" BF999-S rusumli 4 dona ratsiyadan foydalanib kelayotgan ekan. Ushbu huquqbuzarlar

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 152-moddasi 1-qismiga muvofiq jazoga tortiladigan bo'ldi. Ularga bayonnomalar rasmiylashtirilib, sudga taqdim etildi.

Eslatib o'tamiz, fuqarolar "Radiochastota spektri to'g'risida"gi Qonun hamda Vazirlar Mahkamasining "Radiochastota spektridan foydalanish sohasida ruxsat etish

Mutaxassislik fanlari ingliz tilida olib borilyapti

Mutaxassislik fanlarini chet tillarda o'qitishga yuqori malakali mahalliy hamda xorijiy professor-o'qituvchilar jalb qilinmoqda. Jumladan, Janubiy Koreya, Hindiston va Ukrainadan kelgan mutaxassislar talabalarga dars bermoqda. Bu o'zgarishlar talabalarning mustaqil ishlash qobiliyatini oshirishga va ularni xalqaro darajadagi bilim olishiga ko'mak bermoqda.

Filialda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda masofaviy o'qitish tizimidan keng foydalanish

amaliyoti kuchaytirilgan. Virtual ta'lim resurslari va innovatsion loyihalar orqali talabalar o'z mutaxassisliklari bo'yicha chuqur bilim va zamonaviy kasbiy ko'nikmalarni egallamoqda.

O'qituvchilarning malakasini oshirish va xalqaro hamkorliklar orqali filialda ta'lim jarayonini yanada modernizatsiya qilish ishlari davom ettirilmoqda. Bu jarayonda talabalar nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko'nikmalarni ham puxta o'zlashtirmoqda. Bu esa ularga kelajakda o'z sohalarida

muvaffaqiyatli faoliyat yuritish imkonini beradi.

Filialda mutaxassislik fanlaridan chet tillarda ta'lim berishning yo'lga qo'yilishi samarasida filial bitiruvchilaridan 12 nafari xorijiy OTMlarga magistraturaga o'qishga qabul qilindi. Bundan tashqari, 2 nafar talaba Slovakiya davlatida akademik mobillik asosida o'qib keldi, 1 nafar magistrant 2023-2024-o'quv yilining 2-semestrini akademik mobillik asosida Slovakiya davlatida o'qimoqda. 2022-2023-o'quv yilida 42 nafar bakalavriat talabalari xorijda amaliyot o'tadi.

Ziyodulla BOBOMURODOV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali o'quv-uslubiy bo'limi boshlig'i, dotsent.

Jahon miqyosida chet tillarni bilish talab etilayotgan mutaxassisliklar soni ortib bormoqda. Shu maqsadda Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filialida mutaxassislik fanlarini ingliz tilida o'qitish yo'lga qo'yilgan. Bunda ilg'or umum-yevropa ta'lim texnologiyalari, zamonaviy darsliklar va o'quv adabiyotlari hamda noan'anaviy o'qitish usullari qo'llanilmoqda. Xususan, talabalarni o'qitishda axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish kabi muhim masalalarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Samarqand jamoat transportida qanday o'zgarishlar bor?

Matbuot uyida viloyat transport boshqarmasi tomonidan tashkil etilgan matbuot anjumanida Prezidentimizning "Jamoat transporti tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida belgilangan vazifalarning viloyatimizda bajarilishi hamda aholining jamoat transportiga bo'lgan talabini qondirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida ma'lumot berildi.

2023-2024-yillarda "Maroqand trans 777" MChJ va "Dilshod trans servis" MChJ, Xitoyda ishlab chiqarilgan 115 ta avtobus yangi yo'nalishlarga joylashtirdi.

- Ammo shu vaqtgacha "Samarqand shahrida jamoat transporti uchun elektrobuslar xarid qilish va ular bilan bevosita bog'liq infrazuzilmani yaratish" loyihasini amalga oshirish ishlari turli sabablardan ortga surib kelindi, - deydi boshqarma bo'lim boshlig'i Mahmud Uzoqov. - Jamoat transporti uchun 100 ta elektrobus va 50 ta quvvatlash qurilmasi xarid qilish, avtobus saroyi qurilishi kerak edi. O'tgan yil Xitoyning "Yutong Bus Co., Ltd" kompaniyasi tomonidan 6 ta elektrobus va 3 ta quvvatlash qurilmasi keltirildi. Elektrobuslarni saqlash maqsadida davlat korxonasi tashkil etilib, unga 3,8 gektar yer ajratilgan va avtosaroyning loyiha hujjatlari ishlab chiqildi.

Bugun 472 ta jamoat transportining 337 tasi Samarqand shahrida aholiga xizmat qilmoqda. Biroq bu ko'rsatkich bor-yo'g'i 47 foiz bo'lib, shahar aholisi uchun yetarli emas. Shuningdek, Nurobod, Oqdaryo, Toyloq tumanlarida birotta ham yo'lovchi tashish avtobusi yo'nalishlarga qo'yilmagan.

- Oqdaryo, Ishtixon, Qo'shrabot va Paryiq tumanlaridan kelayotgan yo'lovchilarning to'g'ridan-to'g'ri Samarqand shahriining Dahbet ko'chasiga kirib kelishi mazkur hududda tirbandliklarga sabab bo'lmoqda, - deydi M.Uzoqov. - Shu sababli Motrid ko'rg'onidagi aylanma yo'li yonida avtoboshbekat qurish uchun 2,5 gektar yer maydoni ajratildi. Hozirda so'nggi rasmiylashtirish ishlari va loyiha-smeta hujjatlari tayyorlanmoqda. Mazkur avtoboshbekat joriy yil yakunigacha ishga tushiriladi.

Shuningdek, Samarqand halqa avtomobil yo'lining Qarshi aylanma yo'li hududida ham tadbirkorlarimizdan biri tenderda g'olib bo'lib, yangi zamonaviy avtostansiya loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlamoqda. 2,5 gektar maydondagi qurilish ishlari 2 oy ichida boshlanishi rejalashtirilgan.

Matbuot anjumanida joriy yilning aprel oyi oxirigacha Xitoydan 30 ta elektrobus keltirilib, yo'nalishlariga qo'yilishi ma'lum qilindi.

Dilmurod TO'XTAYEV.

nusxasi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

